KASBIY RIVOJLANISH KUNI VA KASBIY RIVOJLANTIRISH SOATI TADBIRLARINING PEDAGOGIK JARAYONGA TA'SIRINI ANALITIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASHNING IMKONIYATLARI

Rajabov Sherzod Umurzoqovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Pedagogik innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.18016876

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy rivojlantirish kuni (KRK) va kasbiy rivojlantirish soati (KRS) tadbirlarining pedagogik jarayonga ta'sirini analitik yondashuv asosida baholash imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. KRK va KRS faoliyatining mazmuni, ularning o'qituvchilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni hamda ta'lim jarayonining sifatiga ko'rsatadigan ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi. Analitik yondashuv orqali mazkur tadbirlarning samaradorlik indikatorlari, pedagogik faoliyatga integratsiyalanish darajasi, o'quv jarayonidagi metodik yangilanishlar va o'qituvchilarning reflektiv amaliyoti bilan bog'liq omillar baholanadi. KRK va KRS tadbirlarida qo'llanilayotgan interaktiv metodlar, kompetensiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'qituvchilar faoliyatiga ta'sir mexanizmlari yoritiladi. Kasbiy rivojlanish kuni va soati doirasida o'tkaziladigan trening, mahorat darslari, amaliy workshoplar, raqamli ta'lim platformalari bilan ishlash bo'yicha mashg'ulotlarning o'qituvchilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil etiladi. Maqola natijalari kasbiy rivojlanish jarayonini tizimli tashkil etish, uning samaradorligini o'lchash hamda pedagogik jarayonda uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy rivojlanish kuni, kasbiy rivojlanish soati, analitik yondashuv, pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, samaradorlik, professional kompetensiya, metodik yangilanish, reflektiv amaliyot, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, raqamli ko'nikmalar, media ta'lim, ta'lim sifati, kasbiy o'sish, monitoring, baholash mezonlari, tanqidiy tahlil, axborot madaniyati.*

Возможности оценки влияния мероприятий дня профессионального развития и часа профессионального развития на педагогический процесс на основе аналитического подхода

Раджабов Шерзод Умурзокович,
проректор по педагогическим инновациям Национального института педагогического мастерства им. А.Авлони, доктор экономических наук, профессор

Аннотация: *В данной статье с научно-методической точки зрения анализируются возможности оценки влияния Дня профессионального развития (ДПР) и Часа профессионального развития (ЧПР) на педагогический процесс на основе аналитического подхода. Рассматриваются содержание деятельности ДПР и ЧПР, их роль в развитии профессиональных компетенций педагогов, а также воздействие на качество образовательного процесса. С помощью аналитического подхода оцениваются показатели эффективности данных мероприятий, степень их интеграции в педагогическую деятельность, методические обновления в*

учебном процессе и факторы, связанные с рефлексивной практикой педагогов. Раскрываются механизмы влияния интерактивных методов, компетентностно – ориентированных занятий и инновационных педагогических технологий, применяемых в рамках ДПР и ЧПР, на профессиональную деятельность учителей. Анализируется роль тренингов, мастер-классов, практических воркшопов и занятий по работе с цифровыми образовательными платформами в развитии профессиональных компетенций педагогов. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по системной организации процесса профессионального развития, оценке его эффективности и обеспечению непрерывного совершенствования педагогической деятельности.

Ключевые слова: *День профессионального развития, Час профессионального развития, аналитический подход, педагогический процесс, образовательный процесс, эффективность, профессиональная компетенция, методическое обновление, рефлексивная практика, интерактивные методы, инновационные технологии, цифровые навыки, медиаобразование, качество образования, профессиональный рост, мониторинг, критерии оценки, критический анализ, информационная культура.*

Analytical approach to assessing the impact of activities of professional development day and professional development hour on the pedagogical process

Radjabov Sherzod Umurzokovich,
Vice-Rector for Pedagogical Innovations of the National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloni, Doctor of Economic Sciences, Professor

Abstract: *This article reviews scientific and methodological analysis of how the Professional Development Day (PDD) and the Professional Development Hour (PDH) impact the pedagogical process, employing an analytical approach to assess their effectiveness. The study examines the content of PDD and PDH activities and their roles in developing teachers' professional competencies and enhancing the quality of the education. Using this analytical basis, the article evaluates effectiveness indicators of these activities, their integration into pedagogical practice, methodological innovations in learning, and factors related to teachers' reflective practice. It explores how interactive methods, competency-based sessions, and innovative pedagogical technologies used within PDD and PDH influence teachers' professional activities. Moreover, the study analyzes the role of training sessions, master classes, practical workshops, and digital educational platforms in enhancing teachers' professional competencies. The findings offer practical recommendations for systematically organizing professional development, measuring its effectiveness, and ensuring continuous improvement of pedagogical practice.*

Keywords: *professional development day, professional development hour, analytical approach, pedagogical process, teaching process, effectiveness, professional competence, methodological innovation, reflective practice, interactive methods, innovative technologies, digital skills, media education, education quality, professional growth, monitoring, assessment criteria, critical analysis, information culture.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlash va malakasini doimiy ravishda yangilab borish borasida davlat siyosati keskin kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son Qarori [3], Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish

tartibi" to'g'risidagi 867-sonli Qarori [2], Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-son buyrug'i [4], shuningdek, maktab ta'limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. Bunday huquqiy asoslar kasbiy rivojlantirish kuni (KRK) va kasbiy rivojlantirish soati (KRS) tadbirlari orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. KRK va KRS tadbirlari doirasida o'tkaziladigan seminarlar, mahorat darslari, amaliy workshoplar va raqamli ta'lim platformalariga asoslangan mashg'ulotlar o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatlarini yangilash, metodik yondashuvlarini boyitish va reflektiv tahlil qilish imkonini beradi. Bu tadbirlarning pedagogik jarayonga ta'sirining ilmiy jihatdan baholanishi dolzarb vazifaga aylanadi.

Kasbiy rivojlantirish kuni va kasbiy rivojlantirish soati tadbirlarini analitik yondashuv metodologiyasi asosida pedagogik jarayonga ta'sirini tahlil qilib ko'rsak. Analitik yondashuv – bu tadbirlar samaradorligini o'lchashga mo'ljallangan indikator bo'lib, faoliyatning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi, metodik yangilanish darajasi va o'qituvchilarning reflektiv o'sishi kabi omillarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu metodologiya o'z ichiga sifatli va miqdoriy tahlillarni oladi: masalan, interaktiv metodlardan foydalanish darajasi, kompetensiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning hajmi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning tatbiqi va ularni o'qituvchilarning pedagogik strategiyalarni takomillashtirishdagi roli.

Maqolada shuningdek, KRK va KRS tadbirlarida qo'llaniladigan interaktiv metodlar hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va innovatsion texnologiyalarning mexanizmlari yoritiladi. Metodlar o'qituvchilarni darslarda va maktab muhitida yangicha yondashuvlarni sinab ko'rishga, raqamli platformalarda ishlashga va o'z pedagogik tajribalarini doimiy ravishda baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada treninglar, mahorat darslari va raqamli ta'lim platformalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning o'qituvchilarning professional kompetensiyalarini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bunday tadbirlar orqali o'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishadi, balki o'z tajribalarini real sharoitda sinab ko'rish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, raqamli ta'lim vositalari va platformalari o'qituvchilarga masofaviy ishlash, ma'lumot almashish va doimiy reflektsiya qilish uchun qulay muhit yaratadi [5].

Maqola natijalari ta'limda rivojlanish jarayonini tizimli tashkil etish, uning samaradorligini baholash va o'qituvchilarning pedagogik jarayonda uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash bo'yicha aniq amaliy takliflar beradi. Ushbu tavsiyalar, o'z navbatida, davlat siyosati va ta'lim muassasalari rahbarlari uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki u KRK va KRS tadbirlarining ta'sirchanligini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan strategik yo'nalishlarni shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy rivojlantirish kuni va kasbiy rivojlantirish soati tadbirlarining pedagogik jarayonga ta'sirining analitik bahosi nafaqat ilmiy naza-

riy muammo, balki amalda ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning uzluksiz professional o‘sishini ta’minlashda muhim vositadir.

KRK va KRS faoliyati ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, pedagogik mahoratini oshirish hamda o‘quv jarayonining sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim tizimlardan biridir. KRK va KRS tadbirlari o‘quv muassasasi ichida metodik boshqaruv, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash, darslarni tahlil qilish, innovatsion g‘oyalarni joriy etish va o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks faoliyatlarni amalga oshiradi. Ushbu tuzilmalar o‘qituvchining metodik madaniyatini rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, ta’lim jarayoni sifatini muntazam monitoring qilish orqali ushbu jarayonni takomillashtirish vazifalarini bajaradi. KRK va KRSning o‘qituvchilar professional kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni avvalo ularning ta’lim jarayonini chuqur tahlil qilishi, o‘qituvchilar faoliyatini kuzatib borishi va aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha metodik tavsiyalar berishida namoyon bo‘ladi. Ular pedagoglarning yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, zamonaviy yondashuvlar va didaktik tamoyillarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi. O‘qituvchilar uchun amaliy seminarlar, mahorat darslari, ochiq darslar tahlili, metodik suhbatlar tashkil etilishi esa pedagoglarning refleksiv fikrlashi, darsni tahlil qilish ko‘nikmasi, pedagogik vaziyatlarni hal etish mahorati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda KRK va KRS o‘qituvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda yo‘naltirilgan metodik yordam ko‘rsatadi, ularning malaka oshirish jarayonini tizimli va uzluksiz xarakterga keltiradi [6].

KRK va KRS faoliyatining eng muhim ta’sirlaridan biri – ta’lim jarayoni sifatining yaxshilanishi bilan bog‘liq. Ular darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, nazorat va baholash jarayonining adolatli va shaffof bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Darslarni muntazam kuzatish va tahlil qilish orqali didaktik xatolar, metodik kamchiliklar va tashkiliy nuqsonlar aniqlanib, ular bo‘yicha aniq amaliy tavsiyalar beriladi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va kompetensiyalarining rivojlanishiga, o‘quv muassasasining umumiy reytingi va samaradorligining ko‘tarilishiga olib keladi. KRK va KRS ta’lim jarayonida jamoaviylik, hamkorlik, ochiq muloqot, o‘zaro tajriba almashish muhitini shakllantiradi. O‘qituvchilarning doimiy professional o‘sishda bo‘lishi maktabning innovatsion salohiyatini kuchaytiradi, o‘quvchilar uchun zamonaviy ta’lim muhitini yaratadi va ta’lim sifatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Shu tariqa KRK va KRS faoliyati o‘qituvchi kompetentligini rivojlantirish bilan birga, umumiy ta’lim jarayonining sifatini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tizim sifatida qaraladi.

Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar pedagoglarning uzluksiz o‘sishi va ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi analitik yondashuvga asoslanadi. Bu jarayonlarda samaradorlik indikatorlari, pedagoglarning tadbirlarda ishtirok etish faolligi, olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash darajasi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va dars jarayonidagi ijobiy o‘zgarishlar orqali baholanadi. Analitik tahlil asosida har bir tadbirning natijaviyligi kuzatiladi, ya’ni o‘qituvchilar tomonidan yangi metod va strategiyalarni qanchalik o‘zlashtirilgani hamda ularni dars jarayoniga integratsiya qilishi ko‘rib chiqiladi. Bu jarayon o‘z ichiga mavjud muammolarni aniqlash, ularga yechim topish, innovatsion yondashuvlarni sinovdan o‘tkazish va

pedagogik faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan maqsadli monitoringni ham oladi.

Kasbiy rivojlanish kuni va soatining pedagogik faoliyatga integratsiyalanish darajasi o‘qituvchilarning yangi o‘quv-uslubiy yondashuvlarni amalda qo‘llash chastotasi, darslarda faol metodlar ulushi, o‘quvchilar ishtirokining oshishi va o‘quv natijalaridagi ijobiy dinamika orqali namoyon bo‘ladi. Tadbirlar davomida o‘rganilgan metodik yangilanishlar o‘quv jarayonida qo‘llanilganda, dars tuzilmasida tahliliy fikrlash, muammoli vaziyat yaratish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar va differensial yondashuv kabi elementlar ko‘payadi. Bu esa ta'lim sifatining yaxshilanishiga, o‘quv jarayonining interaktivlashuviga hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi. O‘qituvchilarning reflektiv amaliyoti mazkur tadbirlarning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u pedagogning dars jarayonini mustaqil tahlil qilish, o‘z faoliyatidagi samarali va sust jihatlarni aniqlash, o‘z-o‘zini baholash va kelgusi faoliyatini rejalashtirish orqali shakllanadi. Refleksiya jarayonida o‘qituvchi o‘z darsini kuzatadi, o‘quvchilarning reaksiyasini baholaydi, metodik vositalar tanlovining to‘g‘riligi yoki yangilanishga ehtiyoj borligini aniqlaydi. Bu esa, kasbiy rivojlanish tadbirlarining ta'sirini kuchaytiradi, chunki o‘qituvchi nafaqat bilim oladi, balki ularni ongli ravishda o‘z faoliyatiga singdiradi. Shu tariqa, kasbiy rivojlanish kuni va soati o‘qituvchi kompetensiyalarini yuksaltirish, ta'lim sifatini oshirish, yangicha pedagogik qarashlarni shakllantirish hamda reflektiv madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz va samarali tizim sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Kasbiy rivojlantirish kuni va soati tadbirlari doirasida tashkil etiladigan treninglar, mahorat darslari, amaliy workshoplar hamda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘qituvchilarning professional kompetensiyalarini chuqur va tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashg‘ulotlarda pedagoglar amaliy ko‘nikma, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va raqamli savodxonlik bo‘yicha aniq hamda real ta'lim jarayoniga mos tajribani egallaydi. Treninglar orqali o‘qituvchilar kommunikativ, refleksiv, metodik va tashkiliy kompetensiyalarni mustahkamlab, pedagogik vaziyatlarni hal etish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ta'lim jarayonini boshqarish va darsni samarali loyihalash bo‘yicha muayyan yondashuvlarni puxta o‘zlashtiradilar. Mahorat darslari esa o‘qituvchilarga ilg‘or pedagoglarning real tajribalarini kuzatish, ularni amaliyotda signal ko‘rinishida tatbiq etishni o‘rganish hamda o‘z darslarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan uslubiy g‘oyalarni olish imkonini beradi [8].

Amaliy workshoplar o‘qituvchilarning faol ishtirokiga asoslangan bo‘lib, ularda pedagoglar nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar orqali sinovdan o‘tkazadi, guruhda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va o‘quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Workshoplar jarayonida o‘qituvchi o‘z fikrini himoya qilish, modellash, kuzatish, tahlil qilish kabi amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi, bu esa uning darslarni yanada samarali, o‘quvchi faolligiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishiga yordam beradi. Raqamli ta'lim platformalari bilan ishlash bo‘yicha mashg‘ulotlar esa zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘qituvchilarning IT – kompetensiyalarini kuchaytiradi, raqamli resurslarni integratsiya qilish, onlayn baholash, elektron portfoliolar yaratish, virtual laboratoriyalar va interaktiv kontentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon pedagoglarga darslarni yanada qiziqarli, vizual boy, interaktiv hamda individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil


etish imkonini beradi. Ushbu tadbirlar o‘qituvchilarning refleksiv amaliyoti bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularda ishtirok etgan pedagoglar o‘z amaliyotini qayta ko‘rib chiqadi, yangi metodlarning samaradorligini baholaydi va kelgusida dars jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqadi. Natijada, o‘qituvchilarning metodik saviyasi oshadi, dars sifati yaxshilanadi, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga jalb qilinishi kuchayadi va umumiy ta’lim jarayoni innovatsion yo‘nalishda rivojlanadi. Shu tariqa kasbiy rivojlantirish kuni va soati doirasidagi trening, mahorat darslari, workshoplar va raqamli platformalar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘qituvchilar kompetensiyalarini kompleks tarzda shakllantiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [13].

Kasbiy rivojlanish jarayonini tizimli tashkil etish, uning samaradorligini o‘lchash va pedagogik jarayonda uzluksiz takomillashtirishni ta’minlash uchun, avvalo, o‘qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlashga asoslangan targ‘ibot mexanizmini yo‘lga qo‘yish zarur. Buning uchun muntazam so‘rovnomalar, diagnostik testlar, dars monitoringlari natijalarini tahlil qilish orqali har bir pedagogning individual o‘sish yo‘nalishlari aniqlanadi va kasbiy rivojlanish rejalari shaxsiylashtirilgan tarzda ishlab chiqiladi. Jarayonni tizimli tashkil etishda ta’lim tashkiloti doirasida kasbiy rivojlanishning yillik kalendar rejasi tuzilishi, unda treninglar, seminarlar, mahorat darslari, raqamli kompetensiyalarni oshirish bo‘yicha mashg‘ulotlar muntazam ravishda ko‘rsatib borilishi muhim ahamiyatga ega. Har bir tadbir maqsadli, aniq kompetensiyani shakllantiruvchi, amaliy natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi, metodik xizmat, KRK/KRS va pedagogik jamoaning hamkorlikda ishlashi esa jarayonning sifatini oshiradi.

Kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligini o‘lchashda aniq indikatorlar joriy etilishi zarur. Bunga dars sifati monitoringi, o‘quvchilarning faollik va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, yangi metodlarni qo‘llash chastotasi, raqamli vositalardan foydalanish darajasi, pedagogning reflektiv faoliyati bo‘yicha ko‘rsatkichlar kiradi. Har bir trening yoki workshopdan so‘ng o‘qituvchilarning amaliyotda qo‘llashlarini kuzatish, darslarda video-tahlil o‘tkazish, “ilgari – hozir” modeli orqali o‘zgarishlarni qayd etish samaradorlikni aniq o‘lchashga yordam beradi. Olingan natijalar asosida o‘qituvchilarga individual feedback berish, ularga moslashtirilgan qo‘llanmalar va tavsiyalar taqdim etish jarayonning natijaviyligini ta’minlaydi [9].


Pedagogik jarayonda uzluksiz takomillashtirishni ta’minlash uchun metodik xizmat faoliyati doimiy ravishda yangilanib borishi, innovatsion yondashuvlar muntazam joriy qilinishi, raqamli ta’lim platformalaridan samarali foydalanish amaliyoti mustahkamlanishi lozim. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish sessiyalari, ochiq darslar tahlili, professional o‘quv hamjamiyatlari tashkil etish, mentorlik va kouçhing dasturlarini yo‘lga qo‘yish uzluksiz o‘sish uchun qulay muhit yaratadi. Har bir o‘qituvchi o‘zining reflektiv portfoliolarini yuritib borishi, unda dars tahlillari, qo‘llangan metodlar natijalari, o‘zini-o‘zi baholash va keyingi o‘sish yo‘nalishlarini belgilab qo‘yishi kasbiy rivojlanishni ichki motivatsiya asosida davom ettirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, kasbiy rivojlanish jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, muntazam monitoring va tahlil asosida baholash hamda innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish ta’lim sifati va pedagoglarning professional o‘sishini barqaror ravishda ta’minlaydi [10]. Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini tashkil etish tartibi pedagoglarning uzluksiz o‘sishi, ta’lim jarayonida metodik yangilanishlarni joriy etish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga qaratilgan tizimli faoliyat

hisoblanadi. Ushbu tadbirlarni samarali tashkil etish, avvalo, ta'lim muassasasi tomonidan yillik, choraklik va oylik rejalarning ishlab chiqilishi, pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlovchi diagnostika natijalariga asoslanishi hamda metodik xizmat tomonidan doimiy monitoring bilan qo'llab-quvvatlanishini talab qiladi. Respublikamizda Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini tashkil etish bo'yicha 2024-2025-o'quv yili hamda 2025-2026-o'quv yilining statistik tahlilini ko'rib chiqsak (1-rasm).



1-rasm. Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini tashkil etish bo'yicha 2024-2025-o'quv yili hamda 2025-2026-o'quv yilining statistik tahlili.

Kasbiy rivojlanish kunini o'tkazish odatda haftaning ma'lum bir kuniga yoki o'quv rejimida belgilangan muddatlarga bog'langan holda amalga oshiriladi, bunda bir necha yo'nalishlar bo'yicha treninglar, mahorat darslari, amaliy workshoplar, tajriba almashish sessiyalari, raqamli platformalar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Kasbiy rivojlanish soati esa haftalik jadvalda belgilangan holda aniq bir kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan qisqa va mazmunli mashg'ulot shaklida tashkil etiladi. Tadbirlarni tashkillashtirish jarayoni pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, ushbu ehtiyojlar asosida mavzular, metodlar, mashg'ulot turlari hamda forumlar belgilanadi. Har bir tadbir uchun maqsad, kutilayotgan natija va baholash mezonlari aniqlanadi. Mashg'ulotlar oxirida refleksiya sessiyalarining o'tkazilishi, o'qituvchilarning o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishi va yangi o'zlashtirilgan metodlarni dars jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, metodik xizmat tomonidan tadbirlar jarayoni video, foto va tahliliy yozuvlar asosida qayd etilib, monitoring natijalari keyingi mashg'ulotlar mazmunini belgilashda foydalaniladi. Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini tashkil etish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm. Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarini tashkil etish tartibi.

Statistik tahlil kasbiy rivojlanish kuni va soati tadbirlarining real samaradorligini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Misol sifatida o‘quv yili davomida o‘tkazilgan tadbirlarda o‘qituvchilarning qatnashish darajasi 85-90 foizni tashkil etgani, o‘tkazilgan workshoplar natijasida o‘qituvchilarning 68 foizi darslarda yangi metodlardan muntazam foydalanishni boshlagani, raqamli platformalar bo‘yicha mashg‘ulotlardan keyin pedagoglarning 72 foizi elektron baholash vositalarini faol joriy qilgani qayd etilishi mumkin. Dars monitoringi ma’lumotlariga ko‘ra, kasbiy rivojlanish tadbirlaridan so‘ng interaktiv metodlardan foydalanish ko‘rsatkichi 25-30 foizga oshgan, o‘quvchilarning darsdagi faolligi esa o‘rtacha 18-20 foizga ortgan. Reflektiv tahlil materiallarida o‘qituvchilarning 60 foizi o‘z darsida kamida ikki xil yangi metodni qo‘llay boshlaganini bildirgan. Bu statistika kasbiy rivojlanish kunlari va soatlari nafaqat pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishiga, balki ta’lim sifati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va dars jarayonining interaktivligi oshishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi [11]. Kasbiy rivojlanish kuni va soati tadbirlarini tizimli tashkil etish, ularning natijalarini raqamli va analitik statistik tahlil orqali baholash, pedagoglar o‘rtasida uzluksiz refleksiya amaliyotini yo‘lga qo‘yish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘qituvchilar kompetensiyasini kuchaytirish va innovatsion pedagogik muhitni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy rivojlanish kuni (KRK) va kasbiy rivojlanish soati (KRS) tadbirlarining mazmuni, tashkiliy mexanizmlari, ularning pedagogik jarayonga ko‘rsatadigan ta’siri, shuningdek, bu tadbirlarni analitik yondashuv asosida baholash natijalarini umumlashtirar ekanmiz, ushbu tizim o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy o‘sishini ta’minlaydigan, zamonaviy ta’lim talablariga mos raqobatbardosh pedagoglar korpusini

shakllantiradigan strategik ahamiyatga ega bo'lgan mexanizm sifatida namoyon bo'layotganini ko'rish mumkin. So'nggi yillarda davlat siyosati darajasida qabul qilingan farmonlar, qarorlar va buyruqlar KRK va KRS tadbirlarini ta'lim tizimining ajralmas bo'lagi sifatida joriy etish va takomillashtirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bu esa, O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonini faqat kurslar, seminarlargina emas, balki maktabning o'zida muntazam ravishda amalga oshiriladigan ichki kasbiy rivojlanish tizimlari orqali ham samarali tashkil etish zarurligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, KRK va KRS tadbirlarining o'qituvchilar professional kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni ko'p qirrali bo'lib, u metodik, tashkiliy, kommunikativ, refleksiv va raqamli kompetensiyalarni kompleks shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar treninglar, mahorat darslari, amaliy workshoplar va raqamli ta'lim platformalari orqali yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar, interaktiv strategiyalar, differensial va kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlarni loyihalash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'layotgani ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, KRK va KRS tadbirlari orqali tashkil etilayotgan mashg'ulotlarning amaliy yo'nalishga ega ekanligi, o'qituvchilarning real dars jarayonida duch keladigan muammolarini hal etishga qaratilgani, o'z navbatida, ularning reflektiv madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Reflektiv tahlil pedagogning o'z faoliyatiga chuqur nazar tashlashi, dars sifati, o'quvchilarning reaksiyasi va natijalari bo'yicha o'zini-o'zi baholashi orqali o'sish nuqtalarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Analitik yondashuvning qo'llanishi KRK va KRS tadbirlarining samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Bu yondashuv orqali tadbirlarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv darajasi, metodik yangilanishlarning dars amaliyotiga tatbiqi, innovatsion texnologiyalarning qo'llanish chastotasi va o'qituvchilarning professional o'sish dinamikasi miqdoriy va sifatli ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Tadqiqot davomida keltirilgan statistik ma'lumotlar bu tizimning real natijadorligini isbotlab turibdi: o'qituvchilarning KRK va KRS tadbirlarida ishtirok etish ko'rsatkichi 85-90 foizni tashkil etgani, 68 foiz pedagogning workshoplar natijasida yangi metodlarni muntazam qo'llay boshlagani, raqamli platformalardan foydalanishda 72 foizlik o'sish qayd etilgani, interaktiv metodlar ulushining 25-30 foizga oshgani, o'quvchilarning darsdagi faolligi 18-20 foizga ortgani, shuningdek, o'qituvchilarning 60 foizi kamida ikki xil yangi metodni darsga tatbiq etgani KRK va KRS tadbirlarining samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

Ushbu natijalarning yuzaga kelishida KRK va KRS tadbirlarining metodik va tashkiliy tashkil etilishi muhim o'rin tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy rivojlanish tadbirlarining samarali tashkil etilishi uchun o'qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, mavzularni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tanlash, mashg'ulotlarni amaliy, interaktiv va reflektiv yondashuv asosida o'tkazish hamda har bir tadbir yakunida baholash va monitoring o'tkazish zarur. Maktabda metodik xizmatning faol ishlashi, KRK/KRS guruhlarining muntazam tahlil olib borishi, o'qituvchilarning reflektiv portfoliolarini yuritishi va dars monitoringi jarayonlarining tizimli yo'lga qo'yilishi pedagogning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Ana shu mexanizmlar o'qituvchining kasbiy o'sishini tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan, tizimli va uzluksiz tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

KRK va KRS tadbirlarining pedagogik jarayonga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biri – maktabda ochiq muloqot, tajriba almashish, hamkorlik, jamoaviy ishlash kabi madaniyatning shakllanishidir. O‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, bir-birining tajribasidan o‘rganish, murakkab pedagogik vaziyatlarni jamoa bo‘lib tahlil qilish hamda yangi metodlarni sinovdan o‘tkazishda birlashtirilgan harakat maktabning umumiy professionallik darajasini oshirdi. Bu holat o‘z navbatida maktabning innovatsion salohiyatini kuchaytirib, ta’lim sifatining barqaror yaxshilanishiga zamin yaratdi.

Yana bir muhim natija shuki, KRK va KRS tadbirlarida raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulotlarning joriy etilishi o‘qituvchilarning IT – kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. Ta’lim jarayonida elektron baholash vositalaridan foydalanish, virtual laboratoriyalarni qo‘llash, onlayn testlar yaratish, raqamli resurslarni darsga integratsiya qilish o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. XXI asr kompetensiyalariga asoslangan ta’lim tizimini shakllantirish uchun bunday ko‘nikmalar pedagoglar uchun asosiy talabdir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, KRK va KRS tadbirlarini samarali tashkil etish o‘qituvchilarni faqat metodik jihatdan emas, balki psixologik, kommunikativ, tashkiliy va reflektiv jihatdan ham mustahkamlaydi. O‘qituvchining o‘z faoliyatiga tanqidiy yondasha olish, yangilikka ochiqligi, o‘z-o‘zini baholay olishi, o‘z ustida izchil ishlashi – zamonaviy ta’limning asosiy komponentlaridir. Bu tizim aynan shu jihatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, KRK va KRS tadbirlari ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tashkil etishda zamonaviy va samarali mexanizm bo‘lib, ular ta’lim sifatining oshishiga, pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga, o‘quvchilar natijalarining yaxshilanishiga hamda maktabning umumiy rivojlanish strategiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot davomida olingan tahliliy va statistik natijalar ushbu tizimning ta’lim sohasidagi strategik ahamiyatini isbotlab berdi. Kelgusida KRK va KRS tadbirlarini yanada takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, metodik xizmatni kuchaytirish, o‘qituvchilarning ehtiyojlariga yanada moslashtirish, tatbiq etilayotgan metod va texnologiyalarni diversifikatsiya qilish ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Kasbiy rivojlanish kuni va kasbiy rivojlanish soati tadbirlarining ilmiy asoslangan tashkil etilishi, ularning samaradorligini analitik yondashuv asosida baholash, pedagogik jarayonda uzluksiz monitoring va refleksiya mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun nafaqat dolzarb, balki strategik zaruriyatdir. Bu tizim o‘qituvchi shaxsining professional o‘sishiga xizmat qiluvchi barqaror, samarali va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PF-79-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 231-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi "Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tartibi to'g'risida"gi 867-son Qarori.

4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-son Buyrug'i.

5. Jo'rayev A. Pedagogik kompetensiya va o'qituvchining kasbiy rivojlanishi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 216 b.

6. Usmonov B., Axmedova Z. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 284 b.

7. To'xliyev B., Xoliqova D. Pedagoglarda innovatsion kompetensiyani shakllantirish metodikasi. – Toshkent: "Fan", 2021. – 198 b.

8. Karimov R., Qurbonova M. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2022. – 254 b.

9. Yusupova G. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda interaktiv yondashuvlar. – Toshkent: "Istiqlol", 2018. – 176 b.

10. Rajabov A. Ta'lim sifatini boshqarish va baholash. – Toshkent: "Muharrir", 2023. – 240 b.

11. Xasanova G. Kasbiy rivojlanish kuni doirasida o'qituvchilar faoliyatining tahlili: metodik yondashuvlar // *Pedagogika va psixologiya* jurnali. – Toshkent: 2024, №2. 56-65-b.

12. O'tayev K. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda treninglar tizimining o'rni // *Uzluksiz ta'lim* jurnali. – Toshkent: 2023, №4. 42-50-b.

13. Qurbonov B. O'qituvchilar uchun amaliy workshoplar metodikasi. – Toshkent: "Fan", 2021. – 132 b.

14. Jo'rayev A., Matlubov S. "Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning kasbiy o'sishi: integrativ yondashuv" // *Xalq ta'limi* jurnali, – Toshkent: 2024, №3. 71-80 b.

15. Raximov U. Kasbiy rivojlanish soati samaradorligini baholash indikatorlari // *O'zbekiston pedagogika* jurnali. – Toshkent: 2024, №1. 33-41 b.